

O'RTA TA'LIM TIZIMIDA ODIL YOQUBOVNING "ULUG'BEK XAZINASI" ROMANINI O'QITISH METODIKASI

Narziyeva Nazokat Abdurasulovna

SamDChTI akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rta ta'lim tizimida tarixiy-badiiy asarlarni, xususan, "Ulug'bek xazinasini" romanini o'qitishning samarali metodlari, pedagogik yondashuvlari hamda didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asarni o'rganish orqali o'quvchilarda tarixiy tafakkur, milliy qadriyatlarga hurmat, badiiy-estetik did va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, metodika, badiiy tahlil, kompetensiya, adabiy ta'lim, interfaol usullar.

Bugungi ta'lim tizimida adabiyot fanining asosiy vazifalaridan biri — o'quvchilarda nafaqat badiiy asarni o'qish, balki uni anglash, tahlil qilish va hayotiy xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirishdir. Tarixiy romanlar bu borada, ayniqsa, muhim. Chunki ular badiiy obraz orqali tarixiy shaxs va davr ruhini jonlantiradi. "Ulug'bek xazinasini" romani ham ilm-fan, adolat, ilmiy tafakkur va insoniy fazilatlarni targ'ib etuvchi asar sifatida o'rta ta'lim adabiyot kursida alohida ahamiyatga ega.

Asarni o'qitish jarayonida pedagogdan o'quvchilarda tarixiy shaxs obrazini badiiy talqin orqali anglash, ilm-fan va jaholat qarama-qarshiligini tushunish, adolat, halollik, ilmga sadoqat kabi qadriyatlarni idrok eta olish, tarixiy voqelik va muallif fantaziyasi farqini ajratish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishi talab etiladi.

Asar orqali o'quvchilar Mirzo Ulug'bek shaxsiyati misolida ilmiy tafakkurning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini angelaydi.

O'qituvchi dars davomida quyidagi o'quv metodidan foydalanishi mumkin:

Bosqichli o'rganish usuli. Roman bilan ishlashni uch bosqichda tashkil etish tavsiya etiladi:

1. Tayyorlov bosqichi: muallif hayoti, davr sharoiti, tarixiy fon bilan tanishtirish.
2. Asosiy bosqich: matn ustida ishlash, obrazlar tahlili, muammoli savollar.
3. Mustahkamlash bosqichi: munozara, ijodiy topshiriq, esse yozish.

Shuningdek, quyidagi kabi turli interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

“Aqliy hujum” — Ulug‘bek shaxsiga baho berish;

Rolli o‘yin — tarixiy voqealarni sahnalashtirish;

Klaster — asardagi g‘oyalarni tizimlashtirish;

Debat — ilm va siyosat munosabati mavzusida.

Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil fikrini rag‘batlantirish uchun ochiq savollar beradi, masalan:

Ulug‘bek fojeasining asosiy sababi nimada?

Nima deb o‘ylaysiz, ilm egasi siyosatdan chetda turishi kerakmi?

Asardagi qaysi qahramon eng murakkab xarakterga ega?

Roman ustida ishlash jarayonida asar yo‘nalishi, mazmuni, obrazlar tahlili, masalan, Mirzo Ulug‘bek, hazrat Xomush, Abdullatif timsollarini qiyosan tahlil qilish, asar g‘oyasi-ilmning jaholat ustidan g‘alabasi, asar konflekti, ya’ni ilm-fan va siyosiy fitna qarama-qarshiligini o‘quvchilarga to‘g‘ri va aniq yetkazib bera olish o‘qituvchining bilim va mahoratidan darak beruvchi hodisa hisoblanadi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, asarning til xususiyati, tarixiy uslub va yozuvchining badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalana olganligini ko‘rsatib berish o‘rgatuvchining oldida turgan asosiy vaifalaridan biridir.

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinas” asarini tizimli o‘qitish natijasida o‘quvchilarda tarixiy tafakkur rivojlanadi, tanqidiy fikrlash shakllanadi, badiiy matnni tahlil qilish malakasi ortadi, fanlararo integratsiya, milliy merosga hurmat kuchayadi.

Tarixiy romanlarni o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat adabiy bilimini, balki dunyoqarashini ham boyitadi. “Ulug‘bek xazinasi” romani o‘rta ta’lim tizimida o‘qitilishi zarur bo‘lgan muhim asarlardan biridir. Uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida

o'rgatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, tarixiy ongini mustahkamlaydi hamda ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018, -352 b.
2. Mirhayitova S.I. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. –Toshkent. 2020, -200 b.
3. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. –Toshkent: Yohlar matbuoti, 2022. -368 b.